

## OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINI TASHKILLASHTIRISH

Pazilova Shoxida Abdulbasitovna

O'R QK Akademiyasi Tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti, PhD

E-mail: [shohida.pazilova.70@gmail.com](mailto:shohida.pazilova.70@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy harbiy ta'lismuassasalarida mustaqil ta'lismishlarini tashkillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Mustaqil ta'lismishlarini maqsad va vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, mustaqil ta'lismishlarining samaradorligini oshirish yo'llari ochib berilgan. Mustaqil ta'lismishlarini to'ri tashkillashtirish bo'lajak oily harbiy mutaxassislarni tayyorlashda chuqur va mustahkam bilimlarni shakllantirishga xizmat qilishi ushbu maqolada aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lism, harbiy mutaxassis, innovatsion faoliyat, auditoriya, axborot, bilim, kursant.

### ABSTRACT

This article provides recommendations on the organization of independent educational work in higher military educational institutions. The goals and objectives of independent educational work are indicated. Also, ways to increase the effectiveness of independent educational work are revealed. It is mentioned in this article that the organization of the network of independent educational work will serve to build deep and solid knowledge in the training of future oily military specialists.

**Key words:** independent education, military specialist, innovative activity, audience, information, knowledge, cadet.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lism to'g'risidagi" qonunlarni muvoffaqiyatli amalga oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Jumladan, fanlarni o'zlashtirishda va kelajak mutaxassisini zamon talabi asosida tayyorlashda mustaqil ishlarni bajarish sifati muhim ahamiyatga ega. Kursantga dars davomida berilgan ma'lumot va axborotlarni passiv o'zlashtirmasdan, o'zlari mustaqil o'zlashtirishlari uchun imkon yaratilishi darkor. Buday imkon, faqatgina mustaqil ish jarayonida berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar Oliy harbiy ta’limning oldiga qo‘yan vazifalaridan biri - harbiy mutaxassisni o‘z - o‘zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olish salohiyatini takomilashtirishga, innovatsion faoliyatdan keng qamrovda foydalanishga tayyorlashni taqozo etadi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda o‘qituvchi tomonidan beriladigan bilimlar yetarli bo‘lmaydi. Shuning uchun oxirgi paytlarda kursantlarning mustaqil ishlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kursantlar mustaqil ravishda shug‘ullansa va o‘z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o‘zlashririshi mumkin. Kursantlarning asosiy bilim, ko‘nikma va malakalari mustaqil ta’lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishslashga qiziqish paydo bo‘ladi. Shundan kelib chiqib kursantlarning mustaqil ta’lim olishlarini rivojlantirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg‘ulotlarida talabalarni o‘qitish bilan bir qatorda ularni ko‘proq mustaqil o‘qishga o‘rgatish, bilim olish yo‘llarini ko‘rsatish, mustaqil ta’lim olish uchun yo‘llanma berish ta’lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri bo‘lmog‘i kerak.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Kursantlarning mustaqil ishlarini tashkil etishda uning mazmuni va shakllariga alohida e’tibor qaratiladi. Auditoriya mashg‘ulotlarida mustaqil ishlarning ahamiyatini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Auditoriya mashg‘ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlarning rolini oshirish professor-o‘qituvchilardan kursantlarning yuqori darajadagi mustaqil ishlarini va tayyorgarliklarini ta’minlovchi usul va shakllarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Topshiriqlar yaratishda ularning murakkablik darajasi inobatga olinishi lozim.

Respublikamizdagи oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlar mustaqil ishining quyidagi shakllaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. O‘rganilayotgan fanning boblariga oid berilgan mavzu bo‘yicha referat, ma’ruza tayyorlash.
2. Tanlangan fan bo‘yicha illustrativ materiallarni tayyorlash. Mavzu o‘qituvchi tomonidan beriladi, uning mazmuni, shakli va ijrosi kursant tomonidan

belgilanadi. 3. Mashq va masalalarni ishslash, turli hisob-kitoblarni amalgalash. 4. Kursantlarda tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan individual topshiriqlarni bajarish.

Quyida oliv harbiy ta’lim muassasasida mustaqil ta’lim ishlarini tashkillashtirishni elekrotexnika va elektronika asoslari fani misolida ko‘rib chiqamiz.

Mustaqil ishning maqsadi - o‘qituvchining bevosita rahbarligi va nazorati ostida yoki mustaqil ravishda kursantda o‘quv ishlarini mustaqil bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Kursant mustaqil ishining vazifalari:

- ma’ruza mashg‘ulotlaridan olgan bilimlarini mustaqil va puxta o‘zlashtirish;
- elektron o‘quv adabiyotlar bilan ishslashni o‘rganish;
- axbotor manbalaridan foydalana olish;
- ilmiy adabiyotlardan va me’yoriy hujjatlar bilan ishslash;
- ishlarni bajarishda ijodiy yondoshish;
- o‘z ishini mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

Kursant mustaqil ishni tayyorlashda fanninh hususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim olishning quyidagi shakllaridan foydalaninshi tavsiya etiladi:


- darslik va o‘quv qo‘llanmalari bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallari bo‘yicha nazariy qismini o‘rganish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- faol va muammoli o‘qitish uslubida foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;

Kursatlarning ma’ruza, amaliy mashg‘ulatlarga tayyorlanib kelishi, o‘tilgan materiallarni o‘zlashtirishlari hamda mustaqil ishlarni bajarishi uchun fanning ishchi dasturida asosiy va qo‘srimcha darslik, qo‘llanmalar ro‘yhati keltirilgan, hat bir kursantga ushbu materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Fanni kursantlar tomonidan chuqur o‘zlashtirishini ta’minalash maqsadida kafedra tomonidan belgilangan mavzular bo‘yicha texnik qurilma tayyorlash ham nazarda tutilgan.

## NATIJA

Yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida ta'kidlash lozimki, kursantlarning mustaqil ishlarini shakllarini aniqlashda quyidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir: 1) mustaqil ishning bajarilish joyi; 2) mustaqil ishni bajarish usuli; 3) bajariladigan topshiriq mazmuni. Ko'rsatilgan omillarga tayangan holda kursantlar mustaqil ishining quyidagi tasnifini taqdim etamiz:



Baholash shakliga keladigan bo'lsak,yuqorida keltirilgan baholash mezonlarini inobatga olib, jurnalga tushgan har bir bahoda mustaqil ishning hissasi 60% dan oshadi, degan xulosaga kelish mumkin. Faqatgina ma'ruza mashg'ulotlari baholanmaganligi uchun referatlar va ijodiy ishlar himoyasi bahosi alohida "mustaqil ish" ustunida baholanishi lozim deb tavsiya beraladi.

Xullas, fan bo‘yicha o‘quv jurnalida mustaqil ishlarni baholash quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ma’ruza mashg‘ulotlari bo‘yicha mustaqil ishlarni baholash alohida “mustaqil ish” ustunida (bir semestrda bir marta).
2. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha mustaqil ishlarni amaliy mashg‘ulot ustunida baholash (amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil yechish uchun berilgan va qo‘srimcha mustaqil yechilgan masalalar yechimini baholash bo‘yicha).
3. Laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha mustaqil ishlarni baholash, laboratoriya ishlari natijalariga mustaqil holda ishlov berish, ishonchlilik intervalini keltirib chiqarish, uni normal taqsimot qonuniyati asosida tushunib yetish, laboratoriya ishi mavzusi bo‘yicha muhim kattaliklar bog‘lanish grafiklarini chizgan holda xulosalar shakllantirganligi va himoya qilganligi uchun laboratoriya ishlari ustunida baholash.
4. Nazorat ishlari shaklida baholash.
5. Yakuniy nazorat shaklida baholash.

### MUHOKAMA

Kursantning mustaqil ishi ma’ruza, amaliy mashg‘ulot yoki laboratoriya ishlari bo‘yicha vazifa berish jarayonida, o‘qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlarda maslahat berishda, akademik qarzdorlikni bartaraf etishda topshiriqlar berish jarayonida, qoldirilgan darslar bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda, kutubxonada ijodiy ishlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Demak, kursantning mustaqil ishi auditoriyada ham, undan tashqarida ham bajarilishi mumkin. Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlar asosiy o‘rin tutadi. Har bir o‘qituvchi mustaqil ishlar rejasini tuzishda buni e’tiborga olishi kerak.

### XULOSA

Mustaqil ta’lim keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u ta’lim olish turlaridan birini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, ta’lim inson, jamiyat, davlat manfaatlari yo‘lidagi aniq maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya jarayoni. Bundan tashqari ta’lim, avvalo, o‘quvchilarda bilimlar, uquvlar va malakalar tizimlari shakllanishida ifodalanadigan ta’lim jarayonining nisbiy natijasidir.

1. Har bir kursant ta’lim olar ekan unda mustaqil ta’limning ahamiyatini to‘la anglab etmog‘i lozim.
2. Mustaqil ta’lim har bir kursantning dunyoqarashini kengaytiradi.
3. Mustaqil ta’lim olam haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.
4. Mustaqil ta’lim, kursantlar tomonidan fanning o‘zi istagan yo‘nalishi bo‘yicha, chuqr bilim olishiga yordam beradi.

5. Ta’lim tizimimizda mustaqil ta’limga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishga alohida ahamiyat berish zarur.

6. Har bir kursant ta’lim olishga kirishar ekan, avvalo o‘zida mustaqil ta’limga bo‘lgan ko‘nikmani shakllantirishi kerak bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha” PQ-3775-sonli qarori.
2. Pirimjarov M.X. Oliy maktabda talabalarning mustaqil ishlari samadorligini oshirish.// Xalq ta’limi. 2007. 4-son, 45-47 bb.
3. Tolipova J., Isomiddinov S. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish.// Xalq ta’limi. 2006. 2-son, 25-28 bb.
4. Nishonova Z. Mustaqil fikrlashga o‘rganish bo‘yicha trening.// Xalq ta’limi. 2000. 1-son. - 46-49 bb.
5. Pazilova Sh. The relevance of the application of the mixed form of education in higher military educational institutions. Science and innovation 2 (B1), 95-97, 2023.
6. Пазилова Ш. А. Основные задачи совершенствования преподавания электротехники и электроники в высших военных учебных заведениях. NAUKA I INOWACJA-2019, 39, 2019.
7. Yunusova G. Problems of qualimetry of personnel training quality in the aspect of the competence based approach. Science and innovation 1 (B8), 2033-2037, 2022.
8. Yunusova G. Monitoring the results of students’ collaborative learning. Science and innovation 2 (B1), 294-297, 2023.